



LINGVOKULTUROLOGIYA SOHASIDA HAYVONLAR NOMI ORQALI YUZAGA KELUVCHI RAMZLARNING SEMANTIK TAHLILI.

Turg'unova Marjonabonu Obidjon qizi

turgunovamarjona8@gmail.com

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, xorijiy til va adabiyoti,
ingliz tili 1-fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13841730>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- Sentabr 2024 yil

Ma'qullandi: 23- Sentabr 2024 yil

Nashr qilindi: 26- Sentabr 2024 yil

KEY WORDS

*lingvomadaniyatshunoslik, ramz,
xalq og'zaki ijodi, semantika,
qiyoslash, totem, konotatsiya.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada lingvokulturologiya sohasi va shu sohaning muhim birliklaridan biri bo'lgan - ramz tushunchasi haqida ma'lumotlar yoritilgan. Maqolada hayvonlar bilan bog'liq ramzlar semantikasi o'zbek madaniyati, o'zbek xalq og'zaki ijodi va uning adabiyoti asosida atroflicha ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kerakli o'rinlarda madaniyatlararo hayvon ramzlari qiyosiy tahlil qilinadi va ular yordamida zarur tushunchalar yoritib beriladi.

Lingvomadaniyatshunoslik bu – til va madaniyat tushunchalari bir nuqtada kesishishidan XX asr 90- yillarida vujudga kelgan soha hisoblanadi.[1] So'nggi o'n yilliklar davomida bu soha rivojlanib kelmoqda va ayni paytda, til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi va tarkibiy qismidir. Chunki, til vositasida madaniyatning moddiy va ma'naviy asarlari yaratiladi. Lingvokulturologiyaning asosiy predmeti - madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi. Bunda muayyan lingvokulturologik birlik bir paytning o'zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo'lishi mumkin: ma'lum bir odat frazeologizmga, maqolga, matalga aylanishi mumkin. O'xshatish, qiyos va ramzlar ham lingvokulturologiya sohasining predmetlaridan biri hisoblanadi. Turli xil hayvon nomlari, ularning xarakterlanishi orqali muayyan bir ramzlar, qiyosiy o'xshatishlar vujudga keladi. Umuman inson olamni qiyos orqali anglab borishini hisobga olsak, qiyos etaloni vazifasini, birinchi navbatda, obyektiv olam unsurlari bajarishi, shubhasiz. Balki shu sababdan ham, yaponlarda meduza, o'zbeklarda gul go'zallik va dilbarlik ramzi sifatida e'tirof etiladi. Umuman olganda bunday qiyoslar, ramzlar o'zbeklarda, o'zbek adabiyotida va ayniqsa uning folklorida ko'plab o'ziga xosliklarni hosil qiladi.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA .

O'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi va nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un o'xshatishlar farqlanadi.[2] Turli lingvomadaniyatlarda muayyan bir narsaning masalan

hayvonning turg'un o'shatish etaloni sifatida qo'llanishini kuzatish mumkin. Masalan, aksariyat tillarda tulki ayyorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik ramzi, etaloni sifatida faol ishlatiladi: tulkiday ayyor, хитрый как лиса (ruscha), as false as fox (inglizcha), you chorom (koreyscha).[2] Yoki o'zbek tilining o'ziga xos o'xshatishlari sifatida *qo'ydek yuvosh, arvohday ozg'in, moldek ovqat yeydigan* shu kabilarni ko'rsatish mumkin. Mazkur o'xshatish etalonlari milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllangan. Etalonlar dunyoning obrazli qiyoslanishidir. Tilda etalonlar ko'pincha turg'un qiyoslamalar ko'rinishida mavjud bo'ladi, shunga qaramay, insonning dunyoni taqqoslashdagi har qanday tasavvuri ham etalon bo'lishi mumkin. Xullas, o'xshatish etalonlari predmetlar, obyektlar va hodisalarning xususiyatini, sifatini qiyoslaydigan mohiyatdir. Ramz tushunchasi qator fanlar nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilinadi: 1) ramz - belgi bilan o'xshash tushuncha (tillarni sun'iy formallashtirishda); 2) hayotni san'at vositasida obrazli o'rganishning o'ziga xosligini ifodalovchi universal kategoriya (estetika va san'at falsafasida); 3) muayyan madaniy obyekt (madaniyatshunoslikda, sotsiologiyada va boshqa ijtimoiy fanlarda) 4) ramz belgi bo'lib, uning dastlabki mazmunidan boshqa mazmun uchun shakl sifatida turli sohalarida foydalaniladi. Lingvokulturologiyani ramzning belgilik jihati qiziqtiradi. Masalan, turli madaniyatlarda kaptar - tinchlik ramzi, nasroniylikda Muqaddas ruh ramzi, yarim oy - Islom ramzi, Xoch - nasroniylik ramzi sanaladi. Agar biz hayvonlarga yuzlanib, ularning o'zbek madaniyatidagi ramziy tasvirlariga nazar tashlasak eng birinchi, bizning hayolimizga ot hayvoni keladi. O'zbek xalqi orasida va uning adabiyotida ot azaldan insonlarga astoydil xizmat qilib kelgan hayvon hisoblanadi. Ilmiy manbalarga ko'ra, otlar miloddan taxminan uch ming yil avval xonakilashtirilgan. [3] Uni mashq qildirish, turli xil ishlarga, harakatlarga o'rgatish boshqa hayvonlarga nisbatan juda oson. U odamning sodiq do'sti, vafodori, og'ir ishlarda madadkori, safarlarda hamrohi, jangu-jadalda, boshqa xavfxatarli holatlarda ko'pincha kishini o'lim-yitimdan saqlab qoluvchi ajoyib jonivordir. Otning yuqoridagi jihatlarini o'zbek xalq maqollarida ham o'z aksini topgan. —Aravani ot tortar, ko'lankasin it-maqolida ot so'zi mehnat ramzini ifodalagan bo'lsa, it so'zi esa aslida ish qilmasa ham o'zini qilganday ko'satuvchi maqtanchoqlarni ramziy ma'noda bildirib kelgan. Ot turkiy qabilalarda totem jonivorlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek xalq og'zaki ijodining yorqin namoyondalari bo'lmish Alpomishni Boychibor otisiz, Go'ro'g'lini esa G'irotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.[3] O'zbek madaniyatida bundan tashqari, yaqin do'st-u birodar yangi uyga ko'chib borsa, darvozaga otning taqasi qoqib qo'yiladi. Bu uy fayzli, barokatli va oila mustahkam bo'lishi kabi ramziy ma'nolarni o'zida ifoda etadi. Ot hayvoni yana sog'lik, bardam baquvvatlik ma'nolarini ham o'zida mujassam etgan. O'. Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" nomli asaridagi ushbu parcha bergan ma'lumotimizga yorqin asos bo'la oladi: "Hali otdaysiz, rais buva, otday. -Ko'rib turibsan-ku, otdayman! – Sherzod qo'llarini yozdi. Menga nima qilardi, qizim. Otdekman. Faqat har doimgidek yolg'izman." Tulki hayvoni ham turli madaniyatlarda o'zgacha ramziy ma'nolarni yuzaga chiqaradi. Tulki o'zbek madaniyatida asosan ayyorlik, yolg'onchilik va ikkiyuzlamachilik kabi salbiy ma'nolarni kasb etadi. Misol uchun, "Agar bo'lsami, o'tirganlar Muhammadjon akaning ustamonligiga, pixini yorgan, mug'ombirligiga, qari tulkiligiga hamma tan bergan, so'ngra bu voqeani uzoq yillar davomida Yaponiyaning saqichidek hech kimga bermay chaynab lazzatlangan bo'lardilar." U. Hamdamning "Muvozanat" nomli asaridan olingan ushbu parchada o'zbek xalqi tulki obrazi orqali qanday salbiy ramziy ma'no tushunchasiga ega

ekanliklarini ko'rish mumkin. Ammo, tulki boshqa madaniyatlarda, masalan Xitoy madaniyatida uzoq umr ramzi sifatida ifoda etiladi va Xitoyda tulkining 100 yoshga kirganda yosh qizga aylanishi kabi afsonalar ham mavjuddir. Yaponiyada esa oq tulki to'kin sochinlik ramzidir. Hattoki, Yaponiyadagi ibodatxona kiraverishlaridagi yo'laklarga guruch omborining kalitini tishlab turgan tulki tasvirlari o'rnatilgan.[4] Shunday qilib, har bir hayvon o'z ramziy etaloniga ega hisoblanar ekan va bu ramziy ma'nolar hudud, madaniyat va xalqqa qarab turli farqlanishlarga ega bo'lar ekan.

III. NATIJALAR.

Zoonim komponentini o'z ichiga olgan matnlarni o'rganish turfa xil xalqlarning madaniy xususiyatlari va tushunchalari bilan tanishish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu holat ayni damda mavjud bo'lmagan hayvonlar haqida ham ko'proq ma'lumot olish, madaniyatlarning birlashtiruvchi jihatlari yoki farqli jihatlari aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun ham zoonim komponentli matnlarni, ayniqsa, maqollarni o'rganish tilshunoslikning bir qancha yangi, ochilmagan qirralarini ochishda juda ham muhimdir. Maqollarning yuzga keelish tarixi juda xilma-xil bo'lib, ular tilda muhim ifodaviy vazifa bajaradi. Maqollarning vujudga kelishi, birinchi navbatda, so'zlovchining nutqini obrazli-ekspressiv ifodalash ko'rki bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, jamiyatdagi munosabatlar, hodisa va holatlarni sodda va oydinroq, aniq ifodalashning eng oson va mazmundor usulidir.[5]

IV. MUHOKAMA.

Ko'plab madaniyatlardagi ramz tushunchasi, uning ko'rinishlari yuzasidan qilgan izlanishlarimiz, o'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, har bir inson ma'lum bir joyda tug'ilib, o'sar ekan, o'sha joydagi insonlar bilan aloqa qilib hayot kechirishi mobaynida, o'zida va atrofida o'z tushunchasini, millatini, madaniyatiyu qadriyatini shakllantiradi. Shuning uchun ham har bir hayvon ham ana shu jihatdan qaraganda o'zining turli talqinlariga ega ekan. Ya'ni turli millat vakillari hayvonlarga turli ramz ma'nolarini talqin qiladigan obraz sifatida turlicha qarar ekan. Bu aynan nimaning ta'sirida? Yoki tildagi ramziy ifodalaru frazeologizmlarning shakllanish asosi nimada? Degan savollarga javobimiz shuki- yuqorida ko'rib o'tganimizdek, har bir madaniyatda turli tushunchalar, qarash va farazlar mavjud bo'lib, hayvonlar yoki o'simliklar vositasida ramz sifatida o'z talqiniga ega bo'ladi. Biz ana shu talqinlarni tildagi ramziy ifodalar va frazeologik birliklar yordamida anglab tafakkur qilish imkoniga ega bo'lamiz. Masalan, uzbek millatida tulki hayvonining tashqi ko'rinishi, uning abjirligi, hiylakorligi ya'ni o'lja topishdagi ustaomonligi jihatidan nayrangkor, razil kimsalar ramzi sifatida ifoda etiladi. Yaponiyaliklar esa o'z madaniyati va tuhsunchasi jihatidan tulkiga boshqa nazar bilan qaraydilar va uni go'yoki ilohiy darajada ulug'lashadi. Bularning barchasi madaniyat, hudud va inson tushunchasining mavjudligi tufayli yuzaga chiqayotgan hodisalardir.

V. XULOSA.

Ushbu yuqorida keltirilgan fikr, mulohazalar va aniq tadqiqot faktlari shuni ko'rsatadiki, hayvonlar nomi orqali insonlar dunyoda mavjud tushunchalari turlicha talqin qilib, ramziy ifoda ko'rinishida ifoda etishadi. Bu talqinlar esa tilda turli frazeologik terminlar va ifodalar orqali o'z aksini topib, yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu ramzlarni o'rganish lingvomadaniyatshunoslik sohasini yanada yangi qirralarini ochishda, shuningdek, uni yanada rivojlantirishda muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayxislamov N. 2021. "Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari". Academic research in educational sciences, 2:1-3.
2. Usmonova Sh. 2019. "Lingvokulturologiya", 26-32. - Toshkent.
3. Nazarova G. 2023. "Lingvomadaniyatda hayvonlar bilan bog'liq ramzlar semantikasi ". Theory and analytical aspects of recent reserch, 16:2-5.
4. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/download/522/463/521>
5. Maxamatova M. 2022. "O'zbek xalq maqollarida zoomorf kodlarning ifodalanishi ". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 9:2-4.

